

MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA’MINLASHDA TASHQI IQTISODIY SALOHİYAT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOİY-IQTISODIY AHAMIYATI

Zakirov Mir Timur Zakir o‘g‘li

Urganch Ranch universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18983644>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi oqimlarini ta’minlashda tashqi iqtisodiy salohiyat tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mehnat migratsiyasi oqimlarini ta’minlashda tashqi iqtisodiy salohiyatning zarurligini asoslash yuzasidan xulosa keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, migratsiya, mehnat migratsiyasi, oqim, salohiyat, tashqi iqtisodiy salohiyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция внешнего экономического потенциала и его социально-экономическое значение в обеспечении потоков трудовой миграции. Также приводится заключение об обосновании необходимости внешнего экономического потенциала для обеспечения потоков трудовой миграции.

Ключевые слова. Регион, миграция, трудовая миграция, поток, потенциал, внешний экономический потенциал.

Abstract. This article discusses the concept of external economic potential and its socio-economic significance in ensuring labor migration flows. Also, a conclusion is made on the justification of the need for external economic potential in ensuring labor migration flows.

Key words. Region, migration, labor migration, flow, potential, external economic potential.

Hozirgi globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlovchi muhim unsur sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, bu borada jahon xo‘jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin mehnat migratsiyasi intensivlashib bormoqda [1]. Chunki, mehnat resurslari ortiqcha bo‘lgan davlatlar uchun tashqi mehnat migratsiyasi aholi bandligini ta’minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mehnat migratsiyasi oqimlarini samarali tashkil etish va boshqarish tashqi iqtisodiy salohiyatni oshirishning strategik yo‘nalishi sifatida qaraladi. Bu boradagi tadqiqotlarda mehnat migratsiyasining iqtisodiyotga ta’siri, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari b‘ hozirgi moliyaviy resurslarning katta miqdorini tashkil etadigan mehnat migratsiyasi hajmining o‘sishi sharoitida ularni iqtisodiyotga ta’siri mexanizmini kuchaytirish lozimligi bayon etilgan [2].

Tashqi iqtisodiy salohiyat mamlakat yoki mintaqaning jahon xo‘jaligi tizimida samarali ishtirok etish, tashqi bozorlar bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, eksport-import operatsiyalari, investitsiyaviy hamkorlik, texnologiya almashinuvi hamda mehnat resurslari harakatchanligini ta’minlash imkoniyatlarini aks ettiradi. Mazkur salohiyat iqtisodiy resurslar, institutsional muhit, inson kapitali, innovatsion salohiyat va tashqi iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Aholi migratsiyasi esa (lotincha “migratio” harakat va qayta joylashish so‘zlaridan olingan) hozirgi kunda ijtimoiy jarayonlarning eng ko‘p o‘rganilgan shaklidir [3]. Uning yana bir ko‘rinishi mehnat migratsiyasi sharoitida tashqi iqtisodiy salohiyat inson kapitali eksporti orqali mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarini jalb etish, xorijiy tajriba va bilimlarni transfer qilish, xalqaro mehnat bozorida milliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini anglatadi. Biroq, mehnat migratsiyasini ta’minlashda ayrim muammolar ham mavjud bo‘ladi. Xususan, malakasi past ishchi kuchi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi pasayishiga va shunga mos ravishda ularning raqobatbardoshligining oshishiga hissa qo‘shsa-da, qo‘llaniladigan sohalarida texnologik qoloqlikka olib kelishi mumkin [4].

Mehnat migratsiyasi tashqi iqtisodiy salohiyat natijasi va uni rivojlantiruvchi tizimi bo‘lib hisoblanadi. Bir tomondan, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi mehnat migratsiyasi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchi tomondan esa migratsiya oqimlari orqali iqtisodiyotga kirib kelayotgan pul o‘tkazmalari, investitsiyaviy faollik va inson kapitali sifatining yaxshilanishi tashqi iqtisodiy salohiyatni mustahkamlaydi. Mehnat migratsiyasi orqali xorijiy valyuta tushumlari oshadi, ichki iste’mol va investitsiya salohiyati kengayadi, aholining kasbiy ko‘nikmalari va mehnat madaniyati

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

yuksaladi va tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi kengayib, yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari yaratiladi.

Fikrimizcha, mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati quyidagi asosiy xususiyatlar bilan izohlanadi:

1) Demografik bosim va mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik mehnat migratsiyasini ob‘ektiv zaruratga aylantiradi. Ya‘ni, ayrim mintaqalarda aholi o‘sishi yuqori bo‘lgan sharoitda ichki mehnat bozori barcha ish izlovchilarni qamrab olish imkoniga ega emas.

2) Mehnat migratsiyasi aholi daromadlarini oshirish, kambag‘allik darajasini pasaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga asosan, migrantlar tomonidan yuboriladigan pul o‘tkazmalari ko‘pgina oilalar uchun asosiy daromad manbai bo‘lib hisoblanadi.

3) Tashqi mehnat migratsiyasi inson kapitalini rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirgan fuqarolar yangi kasbiy ko‘nikmalar, texnologik bilimlar va zamonaviy boshqaruv tajribasini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi oqimlarini ta‘minlashda turli mexanizmlarni takomillashtirish tashqi iqtisodiy salohiyatni oshirishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. Bunda institutsional mexanizm sifatida davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, xususiy rekruting agentliklari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Ushbu institutsional yondashuv mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish, migrantlar huquqlarini himoya qilish, litsenziyalash tizimini takomillashtirish va axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa tashqi mehnat bozorida milliy kadrlar imijini yaxshilash va tashqi iqtisodiy aloqalarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy-texnik va innovatsion yondashuv esa mehnat migratsiyasini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni taqozo etadi. Raqamli platformalar orqali ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tarqatish, kasbiy tayyorgarlikni onlayn tashkil etish, migratsiya oqimlarini monitoring qilish tashqi iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Yana bir innovatsion yondashuv esa yuqori malakali mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish, “aqli migratsiya” modellarini joriy etish va intellektual resurslar eksportini kengaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi oqimlarini ta‘minlashda tashqi iqtisodiy salohiyat tushunchasi inson kapitali harakatchanligi, valyuta tushumlari, xalqaro tajriba almashinuvi va iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati esa aholi bandligini ta‘minlash, daromadlar barqarorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, mehnat migratsiyasini strategik boshqarish, institutsional, ilmiy-texnik va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali mintaqaning tashqi iqtisodiy salohiyatini oshirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida e‘tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/49959/611b3b664102d.pdf>
2. Исраилова Д.К. Мехнат миграцияси – иқтисодий ўсишни таъминловчи омил сифатида. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2021. (№ 00056). - 243 b.
3. Современные подходы к оценке влияния потоков трудовых миграций на социально-экономическое благополучие принимающей территории: кол. моногр. Е.Б.Бедрина и др. - Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2014. - с. 21.
4. Кудяева М., Редозубов И. Влияние миграционных потоков на экономическую активность и рынок труда россии в целом и региональном аспекте. // Серия докладов об экономических исследованиях. Декабрь 2021. - с. 12.